

OLMALIQ KMK”AJNING YASHIL IQTISODIY FAOLIYATINI BAHOLASH

Ramatov Azamat

Toshkent davlat transport universiteti Universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish yo‘nalishidagi strategik maqsadlari doirasida sanoat tarmoqlarining ekologik jihatdan samarali va yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Olmaliq KMK” AJ milliy iqtisodiyotning yirik sanoat subyektlaridan biri sifatida resurslarni tejash, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini joriy qilish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida yetakchi rol o‘ynamoqda.

Kalit so’zlar: Ekologik omillar, yashil ishlab chiqarish, ekologik transformatsiya, tog‘-kon va metallurgiya sanoati.

2030-yilgacha O‘zbekiston sanoat korxonalarining energetik samaradorligini 20% ga oshirish, chiqindilarni qayta ishlash darajasini 40% gacha yetkazish hamda sanoat tarmoqlarida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini 30% ga oshirish bo‘yicha milliy maqsadlar belgilangan bo‘lib, “Olmaliq KMK” AJning chiqindisiz ishlab chiqarish va suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlari ushbu maqsadlarga muvofiq holda olib borilmoqda¹.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning xalqaro ekologik majburiyatları, jumladan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha milliy strategiya” va “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Qonun” doirasida “Olmaliq KMK” AJ tabiiy resurslardan foydalanishning samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini takomillashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini uglerod emissiyasini kamaytirish tamoyillariga moslashtirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ushbu tashabbuslar sanoat

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni, 2030-yilgacha mo‘ljallangan O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi

korxonasing uglerod izini kamaytirish, yashil energiyadan foydalanish ulushini oshirish va barqaror ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish yo‘nalishlaridagi strategik maqsadlari bilan hamohang bo‘lib, O‘zbekistonning Parij Kelishuvi bo‘yicha qabul qilgan majburiyatlariga mos ravishda 2025-yilgacha issiqxona gazlari chiqindisini 10% ga kamaytirish va sanoat tarmoqlarida uglerod neytralligiga bosqichma-bosqich erishish maqsadlariga xizmat qiladi².

“OLmaliq KMK” AJda yashik iqtisodiyot doirasida olib boriladigan chora-tadbirlar yuqoridagi tashabbuslardan tashqari korxonaning "Tabiiy resurslarni boshqarish bo‘yicha siyosat", "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati", "Biodiversitetni boshqarish siyosati", hamda "Sanoat chiqindilarini boshqarish siyosati" kabi ekologik barqarorlikka oid yo‘nalishdagi rasmiy hujjatlar mavjud edi. Ushbu hujjatlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha korxonaning uzoq muddatli strategiyasini belgilab beradi (2.3-jadval).

2.3-jadval

“Olmaliq KMK” AJning “yashil iqtisodiyot” doirasida bajarilgan ishlar

Yo‘nalish	Bajarilgan ishlar	Natija
Resurslarni tejash va boshqarish	Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish texnologiyalarini joriy etish	Resurslarning qayta ishlash ulushi oshdi, chiqindilar miqdori kamaydi
Atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish	Atmosferaga chiqindilarni nazorat qilish uchun maxsus filtrlar o‘rnatildi	Zaruriy me’yoriy ko‘rsatkichlar ta’minlandi
Energiya samaradorligini oshirish	Energiyatejamkor texnologiyalar tatbiq qilindi	Elektr energiyasi sarfi qisqardi va ishlab chiqarish xarajatlari kamaydi

² O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 4-noyabrdagi Qonuni №3PY-739, “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, 2022-2030-yillarga mo‘ljallangan Yashil Iqtisodiyot Strategiyasi

Bioxilma-xillikni asrash	Ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi yer ekotizimlarini tiklash loyihalari	Mahalliy flora va faunaning holati yaxshilandi
Mahalliy aholi bilan ishslash	Jamoatchilikni ekologik loyihalarga jalb qilish va kompensatsiya to'lash	Jamoatchilik bilan aloqalar mustahkamlandi va loyihalarga rozilik olindi

Olmaliq KMK AJ tomonidan yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyatga tatbiq etish bo'yicha amalga oshirilgan keng qamrovli tashabbuslar sanoat ishlab chiqarishining ekologik barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Chiqindilarni qayta ishslash va utilizatsiya qilish texnologiyalarining joriy etilishi natijasida resurslarning ikkilamchi aylanishi kuchayib, sanoat chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta'siri sezilarli darajada kamaygan. Atmosfera ifloslanishini minimallashtirish maqsadida gaz chiqindilarini filtrlash tizimlari modernizatsiya qilinib, ekologik me'yorlarga mos keluvchi emissiya darajalari ta'minlandi, bu esa sanoat jarayonlarining barqarorligini oshirishga yordam berdi. Shu bilan birga, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha energiyatejamkor texnologiyalarning tatbiq etilishi elektr energiyasi iste'molini optimallashtirib, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, bioxilma-xillikni saqlab qolish va ekotizim barqarorligini ta'minlash maqsadida yer degradatsiyasiga qarshi kurashuvchi reabilitatsiya loyihalari amalga oshirilgan bo'lib, natijada hududiy flora va fauna muhofazasi yaxshilangan.

Mahalliy hamjamiyat bilan o'zaro muloqotni kuchaytirish, ekologik loyihalarga aholining jalb etilishini oshirish va sanoat faoliyatining ijtimoiy ta'sirini yumshatish maqsadida jamoatchilik bilan ochiq muloqot platformalari yaratilib, ekologik kompensatsiya tizimi amaliyatga joriy etildi, bu esa korxona va mahalliy aholi o'rtaida ekologik barqarorlikka asoslangan hamkorlikni mustahkamladi. Barcha ushbu choratadbirlar sanoatning uzoq muddatli ekologik va iqtisodiy transformatsiyasini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, yashil iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari bilan hamohangdir. Buning

uchun shuningdek grinometrik tahlil orqali uning tashabbuslarining samaradorligini baholash mumkin (2.4-jadval).

2.4-jadval

“Olmaliq KMK” AJning yashil ishlab chiqarish samaradorligi (2019-2024)³

Ko'rsatkichl ar gi	O'l.birli gi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Iqtisodiy samaradorlik	foiz	1,77604 5	1,4610 3	2,03639 3	1,88189 4	1,83176 5	2,00778 7
Umumiy foyda	mlrd so'm	19077,8	21048, 9	29097,2	28173	29907	34631
Resurs investitsiyasi	mlrd so'm	259,407	233,48 2	260,787	248,377	250,49 9	249,626
Investitsion xarajatlar	mlrd so'm	12604,7	11686, 3	12503	10931,7	11302	10797,5 4
Soliq imtiyozlari	foiz	0	0	0	0	0	0
Umumiy xarajatlar	mlrd so'm	10305,4	13405, 8	16416,5	18191	20016	21733
Real investitsiya	mlrd so'm	17559,4	20231, 7	20846,3	18992,4 1	20881,2	21323,5

Jadval ma'lumotlari asosida iqtisodiy samaradorlikning 2019-2024 yillar oralig'ida sezilarli o'zgarishlarga duch kelganini kuzatish mumkin. 2019-yilda ushbu ko'rsatkich 1,776 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 1,461 foizgacha kamaygan. 2021-yilda iqtisodiy samaradorlik keskin o'sib, 2,036 foizga yetgan, biroq 2022-2023 yillarda ushbu ko'rsatkich mos ravishda 1,88 va 1,83 foizgacha pasaygan. 2024-yilda esa iqtisodiy

³ Muallif hisob-kitoblariga ko'ra shakllantirilgan

samaradorlik yana o'sib, 2,007 foizga yetgan. Ushbu tendensiyalar korxonaning umumiyligi samaradorligi investitsiya strategiyasiga va tashqi iqtisodiy omillarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Kelgusida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun resurslardan yanada samarali foydalanish, yashil texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Umumiy foyda hajmi yillar davomida o'sib borgan bo'lib, 2019-yilda 19,077,8 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 21,048,9 milliard so'mga yetgan. Ushbu ijobjiy tendensiya 2021-2024 yillarda ham davom etib, 2024-yilda umumiy foyda 34,631 milliard so'mga yetgan. Bu o'sish ishlab chiqarish hajmlarining oshishi, mahsulot tannarxining samarali boshqarilishi va bozordagi talabning ortib borishi bilan bog'liq. Xalqaro tajribaga ko'ra, bunday iqtisodiy natijalarga erishish uchun diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish tizimi va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish zarur. "O'zbekiston 2030" strategiyasi doirasida sanoat korxonalarining global bozorga chiqish salohiyatini oshirish va innovatsion ishlab chiqarish tizimini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Resurs investitsiyalari hajmi 2019-yilda 259,4 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 233,5 milliard so'mgacha pasaygan. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 260,7 milliard so'mga yetib, keyingi yillarda nisbatan barqaror darajada saqlangan. 2024-yilda ushbu investitsiyalar hajmi 249,6 milliard so'mni tashkil qilgan. Resurs investitsiyalarining bunday nisbatan o'zgaruvchan tendensiysi ishlab chiqarish jarayonlarida energiya va xomashyo samaradorligini oshirishga qaratilgan siyosatning muhimligini anglatadi. Barqaror yashil ishlab chiqarish tamoyillarini saqlab qolish va ekologik toza texnologiyalarni kengaytirish uchun resurs investitsiyalarini yanada ko'paytirish va xorijiy hamkorlar bilan texnologik almashinuvni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Investitsion xarajatlar hajmi 2019-yilda 12,604,7 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 11,686,3 milliard so'mgacha kamaygan. 2021-yilda investitsion xarajatlar yana 12,503 milliard so'mga oshgan bo'lsa-da, 2022-2024 yillarda ushbu ko'rsatkich pasayish

tendensiyasini namoyon etgan. 2024-yilda investitsion xarajatlar 10,797,5 milliard so‘mgacha tushgan. Ushbu pasayish yangi texnologik loyihamalar va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish bo‘yicha investitsiya hajmining qisqarishini anglatadi. Rivojlangan sanoat mamlakatlari tajribasiga ko‘ra, investitsiya hajmining doimiy pasayishi korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu bois, investitsion strategiyani takomillashtirish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy kapitaldan yanada samarali foydalanish talab etiladi.

Umumiy xarajatlar hajmi 2019-yilda 10,305,4 milliard so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 13,405,8 milliard so‘mgacha oshgan. Ushbu tendensiya keyingi yillarda ham davom etib, 2024-yilda umumiy xarajatlar 21,733 milliard so‘mga yetgan. Xarajatlarning doimiy o‘sishi ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, energiya resurslari va xomashyo narxlarining oshishi, shuningdek, texnologik modernizatsiya jarayonlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun xarajatlarni optimallashtirish strategiyasini ishlab chiqish, energiya tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish talab etiladi.

Real investitsiyalar hajmi 2019-yilda 17,559,4 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda 20,231,7 milliard so‘mgacha oshgan. Ushbu ko‘rsatkich 2021-yilda 20,846,3 milliard so‘mga yetgan bo‘lsa-da, 2022-yilda qisqa muddatli pasayish kuzatilib, 18,992,4 milliard so‘mni tashkil qilgan. 2023-2024 yillarda real investitsiyalar yana o‘sib, mos ravishda 20,881,2 va 21,323,5 milliard so‘mga yetgan. Bu esa korxonaning barqaror investitsion siyosati yuritayotganligini va uzoq muddatli rivojlanishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Rivojlangan sanoat mamlakatlari bilan hamkorlikni kengaytirish, xorijiy texnologiyalar va moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali real investitsiyalarning yanada ortishini ta’minlash tavsiya etiladi.

Resurslardan foydalanish hajmi (Rt) sezilarli o‘zgarishlarga duch kelgan. 2019–2021 yillarda resurs iste’moli o‘zgarib, 41,977 ming tonnadan 40,000 ming tonnaga pasaygan. 2022-yilda bu ko‘rsatkich yana ortib, 43,680,2 ming tonna ga yetgan. Biroq 2023–2024

yillarda sezilarli o'sish kuzatilgan: 424,109 ming tonna va 463,744 ming tonna. Ushbu keskin o'sish ishlab chiqarish jarayonlarining resurs talabchanligini ko'rsatadi. Kelajakda resurs sarfini kamaytirish va muqobil xomashyo manbalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish asosiy maqsad bo'lishi lozim.

Ekologik xarajatlar ulushi (Er) 2019-yildan 2024-yilgacha 8041 mln so'mdan 35,026 mln so'mga ortgan, bu 4,3 baravarga ko'payish deganidir. Ayniqsa, 2020-yildan 2021-yilga o'tishda ekologik xarajatlarning 2,8 baravarga oshishi ekologik standartlarga rioya qilish bo'yicha bosimning ortganligini ko'rsatmoqda. 2022–2024 yillarda ekologik xarajatlar yuqori darajada barqaror qolgan, bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha faoliyatning izchil olib borilayotganligini bildiradi. Shu bois, ekologik investitsiyalarni yanada kengaytirish va uglerod kompensatsiya mexanizmlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Olmaliq KMK" AJ yashil o'sish ko'rsatkichlarida barqarorlikka erishish yo'lida harakat qilmoqda, ammo iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanat hali ham to'liq ta'minlanmagan. Iqtisodiy va ekologik samaradorlikni oshirish uchun energiya samaradorligi, ekologik innovatsiyalar va resurslarni qayta ishslash texnologiyalariga investitsiyalarni ko'paytirish zarur. Yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos keluvchi strategiyalar ishlab chiqilsa, kompaniya uzoq muddatli barqaror o'sishga erisha oladi. Ekologik talablar va ishlab chiqarish ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash – kompaniya uchun strategik yo'nalish bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 4-noyabrdagi Qonuni №3PY-739, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, 2022-2030-yillarga mo'ljallangan Yashil Iqtisodiyot Strategiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sun farmoni, 2030-yilgacha mo'ljallangan O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi
3. UN Sustainable Development Goals, un.org
4. Muallif hisob-kitoblariga ko'ra shakllantirildi

5. Bobojonova Zarnigor Shokirovna. "Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi" ilmiy jurnali. № 12/5 (109). ISSN 2091-573 X. Xiva-2023. – B. 39-42
6. Bobojonova Zarnigor Shokirovna. Journal of "Management Value & Ethics". Volume 14, No. 03. ISSN-2249-9512. India - 2024. - P. 182-187
7. Bobojonova Zarnigor Shokirovna. "Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamонавиј тенденцијалари ва истиқбollari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Toshkent-2022. – C. 942-946.